



IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING “TAFAKKUR VA TALQIN”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2025-yil, 15-may

Tahrir hay’ati

O.X.Xamidov	- Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;
R.G'.Jumayev	- Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), professor;
K.A. Samiyev	Texnika fanlari doktori (DSc), dotsent;
D.R. Djurayev	- Fizika-matematika fanlari doktori, professor;
S.Q. Qahhorov	- Pedagogika fanlari doktori, professor;
A.A. Turayev	- Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor;
S.B.Bo'riyev	- Biologiya fanlari doktori, professor;
B.N.Navro'z-zoda	- Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
O.S.Qahhorov	- Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;
Sh.Sh.Olimov	- Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor;
B.E.Qilichov	- Filologiya fanlari doktori (DSc), professor;
M.B.Ahmedova	- Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent;
B.B.Namozov	- Tarix fanlari doktori (DSc), professor;
M.A.Tursunov	- Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor;

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) professor.

Muharrirlar:

M.B.Qayimova – BuxDU 1-bosqich magistranti.

T.Sh.Ergashev – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi.

D.R.Rahmatova – Magistratura bo'limi mutaxassisi.

To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga shaxsan mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

MADANIY MEROS KONTEKSTIDA BARQAROR TURIZMNI QO'LLASH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA.

Fatilloeva Sabina Anvar qizi

Buxoro davlat universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti Iqtisodiyot kafedrası 1-bosqich magistri.

anvarovnasabina07@gmail.com

Ilmiy rahbar: Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

i(i.f.f.d, PhD) Usmonova.A.

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Xususan, Yaponiya va Turkiya davlatlarida madaniy merosni asrab-avaylash bilan birga, turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar o'rganiladi. Maqolada turizmning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini uyg'unlashtirish orqali madaniy meros obyektlarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish yo'llari muhokama qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribaning O'zbekiston sharoitida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan jihatlarini aniqlanib, milliy barqaror turizm modelini ishlab chiqishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar. madaniy meros, barqaror turizm, xalqaro tajriba, ekologik turizm, merosni muhofaza qilish, turizm strategiyalari, O'zbekiston.

Annotation. This article presents an in-depth analysis of international experiences in developing sustainable tourism based on cultural heritage sites. In particular, it examines the strategic approaches adopted by countries such as Japan and Turkey, aimed at preserving cultural heritage while promoting tourism in line with the principles of ecological, social, and economic sustainability. The study explores the balance between tourism development and heritage conservation, the rational use of resources, and the preservation of these assets for future generations. Moreover, based on the analysis of best international practices, the article identifies aspects that can be applied in the context of Uzbekistan and proposes recommendations for developing a national model of sustainable tourism.

Keywords. cultural heritage, sustainable tourism, international experience, ecological tourism, heritage preservation, tourism strategies, Uzbekistan

Kirish. Bugungi global iqtisodiyotda barqaror turizm sohasi yetakchi tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilib, ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy omili, ish o'rinlari yaratuvchisi va xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi sektor sifatida namoyon bo'lmoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, balki jamiyatda tinchlik, madaniy almashinuv va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda ham muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda, sayyohlik oqimining ortishi bilan ushbu meros obyektlarini asrash, ularning fiziki va madaniy yaxlitligini saqlab qolish muammosi yanada dolzarb tus olmoqda. shu sababli, bugungi kunda turizmni barqaror rivojlantirish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylangan. Barqaror turizm – bu atrof-muhitni asrash, mahalliy hamjamiyat manfaatlarini inobatga olish va iqtisodiy foyda o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan yondashuv bo'lib, u uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishishni maqsad qiladi. Tabiiy, tarixiy va madaniy resurslarning saqlanmasligi, ijtimoiy qadriyatlarning yo'qolishi, hamda global ekologik muammolar fonida barqaror turizm har qanday milliy va xalqaro turizm strategiyalarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, barqaror turizm konsepsiyasiga asoslangan yondashuvlar madaniy merosni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishning muhim vositasiga aylanmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda barqaror turizm ekologik, ijtimoiy va

iqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi tizimli yondashuv sifatida talqin qilinmoqda. Bu yondashuv doirasida turizm faqat iqtisodiy foyda manbai emas, balki jamiyatning madaniy xotirasini asrash, mahalliy hamjamiyatlar rivojiga xizmat qilish va tabiiy hamda tarixiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari, xususan Yaponiya va Turkiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarini saqlash va turizm faoliyatini integratsiyalashgan tarzda tashkil etish orqali nafaqat merosni asrab-avaylash, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ham samarali tarzda ro'yobga chiqarish mumkin. Aynan Turkiya va Yaponiya tanlanishining sababi — ularning madaniy merosni asrash, turizmni barqaror rivojlantirish va mahalliy jamiyatlarni jalb qilishdagi ilg'or tajribalarining O'zbekiston sharoitiga eng mos kelishi va o'xshash ehtiyojlarga ega bo'lishidir. Shu sababli, ular tajribasi O'zbekiston uchun ham amaliy qadamlar ishlab chiqishda juda foydali namuna bo'la oladi. Mazkur maqolada aynan shu davlatlar misolida barqaror turizmning madaniy meros kontekstidagi qo'llanishi tahlil qilinadi va O'zbekiston uchun ahamiyatli bo'lgan amaliy jihatlar asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida sifatli kontent-tahlil va qiyosiy o'rganish metodlari qo'llanildi.

Asosiy ma'lumotlar UNWTO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turizm Tashkiloti) tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar, Turkiya va Yaponiyaning madaniy merosni muhofaza qilish va turizmni boshqarish sohasidagi amaliy dasturlaridan olindi (UNWTO, 2023). Shuningdek, ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik tamoyillari asosida tahliliy yondashuv ishlab chiqildi. O'zbekiston sharoitini hisobga olgan holda xalqaro tajribalarni moslashtirish uchun moslashtiruvchi tahlil usuli tanlandi.

Natijalar: Turkiya tajribasi. Turkiya o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, geografik joylashuvi va turistik salohiyati bilan global miqyosda eng faol sayyohlik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko'ra mamlakatga 56 milliondan ortiq mahalliy va xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, bu ko'rsatkich Turkiyaning turizm infratuzilmasi va strategik yondashuvlari muvaffaqiyatli ishlayotganini ko'rsatadi (Turkiya Madaniyat va Turizm vazirligi, 2024). Turkiyada barqaror turizmni rivojlantirishda asosiy e'tibor madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash bilan turizm sohasini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Istanbul, Kapadokiya, Efes, Troya, Goreme kabi sayyohlik yo'nalishlari UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bu maskanlar nafaqat estetik va tarixiy ahamiyatga ega, balki mahalliy aholi uchun iqtisodiy daromad manbai sifatida xizmat qilmoqda.

Turkiyada madaniy turizm va barqarorlik o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash uchun bir nechta asosiy yo'nalishlar ishlab chiqilgan:

Merosi obyektlarida nazoratli tashrif tizimi joriy etilgan bo'lib, bu sayyohlar oqimini cheklash orqali infrastrukturaga tushadigan bosimni kamaytiradi;

Ekoturizm va mahalliy turizm klasterlari rivojlantirilmoqda, ya'ni sayyohlar faqat mashhur joylarga emas, balki kichik qishloq va tarixiy ahamiyatga ega hududlarga ham yo'naltirilmoqda; Professional gidlar tayyorlash dasturlari orqali madaniy merosni tushunarli va to'g'ri talqin qilishga e'tibor berilmoqda. Bu nafaqat madaniyatni targ'ib qiladi, balki til to'siqlarini yengillashtiradi va tajribani chuqurlashtiradi.

Bundan tashqari, Turkiyada barqaror turizmga oid milliy strategiyalar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) moslashtirilgan bo'lib, xususan 11-maqsad (Shaharlar va jamoalar barqarorligi) hamda 12-maqsad (Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) doirasida amalga oshirilmoqda.

Yaponiya tajribasi. Yaponiya barqaror turizmni rivojlantirishda ekologik va ijtimoiy muvozanatga alohida e'tibor qaratadi. UNWTO va Yaponiyaning Turizm agentligi tomonidan

2023-yilda tashkil etilgan “Green Tourism International Symposium” doirasida yashil turizm konsepsiyasi keng targ'ib qilindi (UNWTO, 2023). 2011-yil 11-mart kuni sodir bo'lgan Tohoku (Sharqiy Yaponiya) zilzilasi Yaponiya turizm sohasiga salmoqli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tabiiy ofat natijasida xorijiy sayyohlar oqimi keskin kamaygan. Biroq, Yaponiya hukumati va turizm sohasi tomonidan olib borilgan izchil targ'ibot va strategik choralar evaziga keyingi yillarda sayyohlar soni bosqichma-bosqich ortdi. Japan National Tourism Organization (JNTO) tomonidan taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda Yaponiyaga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 31,88 millionga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan 2,2 foizga ko'paygan.

Yaponiya turizm siyosatining samarali amalga oshirilishi uchun bir qator muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratilishi zarur. Eng avvalo, tashrif buyuruvchi sayyohlarning kelib chiqish hududlarini diversifikatsiyalash (ya'ni, turli mamlakatlardan turistlarni jalb etish) muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mehmonlarning tashrifdan ko'zlagan maqsadlarini chuqur tahlil qilish, ularning ehtiyoj va qoniqish darajasini aniqlash orqali takroriy tashriflar sonini oshirish mumkin. Faqatgina an'anaviy mehmondo'stlik (yapon tilida “*omotenashi*”) darajasini yaxshilash yetarli emas. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar asosida soddalashtirilgan tarjima vositalari, bepul va tezkor Wi-Fi tarmog'i kabi infratuzilma elementlarini rivojlantirish lozim. Yaponiya texnologik salohiyatga ega davlat sifatida, xorijiy sayyohlar uchun qulay va do'stona muhitni shakllantirishda innovatsion yechimlarni keng joriy etishi zarur. Bu jarayonda mahalliy aholining madaniyati va urf-odatlarini inobatga olgan holda, sayyohlarni qabul qilishga tayyor bo'lgan ijtimoiy va texnik (ya'ni “hard” va “soft”) infratuzilmalarni muvozanatli rivojlantirish asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, sayyohlarning faqat yirik shaharlarga emas, balki mamlakatning boshqa mintaqalariga ham yo'naltirilishini ta'minlash – turizmning hududiy diversifikatsiyasini ta'minlovchi strategik chora sifatida qaralmoqda.

Yaponiyada asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

- “Satoyama” konsepsiyasi asosida inson va tabiat uyg'unligi muhofaza qilinadi.
- Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi: QR kodlar, virtual gidlar va mobil ilovalar orqali sayyohlik tajribasi boyitilmoqda.
- Mahalliy aholi va turizmning uyg'un rivojlanishi: Sayyohlik loyihalarida mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtiroki ta'minlanmoqda.

Muhokama. Turkiya va Yaponiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarini faqatgina saqlash emas, balki ularni barqaror rivojlantirish va mahalliy hamjamiyatlar bilan uyg'un holda boshqarish muhimdir. Ularning yondashuvi madaniy obyektlarga ko'p sonli tashriflarni cheklash, resurslardan oqilona foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish va sayyohlar ongini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston sharoitida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Madaniy meros obyektlarida tashrifni boshqarish tizimlarini joriy etish;
- Viloyatlardagi kichik tarixiy hududlarni turistik markazlarga aylantirish;
- Sayyohlik infratuzilmasini ekologik standartlarga mos ravishda rivojlantirish;
- Raqamli texnologiyalar va virtual sayohat imkoniyatlarini kengaytirish.

Xulosa. Barqaror turizm — bu nafaqat iqtisodiy o'sish, balki madaniy qadriyatlarni saqlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va mahalliy jamiyat farovonligini oshirish uchun xizmat qiluvchi strategik yondashuvdir.

Turkiya va Yaponiya tajribasi ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarini saqlash va turizm faoliyatini integratsiyalashgan holda rivojlantirish orqali uzoq muddatli natijalarga erishish mumkin. O'zbekiston uchun esa xalqaro tajribalar asosida o'ziga xos milliy model yaratish va barqaror turizmni rivojlantirish muhim vazifadir.

Adabiyotlar

1. UNWTO. (2023). International Tourism to End 2023 Close to 90% of Pre-Pandemic Levels. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-end-2023-close-to-90-of-pre-pandemic-levels>
2. UNWTO. (2023). International Symposium on Green Tourism 2023. <https://www.unwto.org/international-symposium-on-green-tourism-2023>
3. UNWTO. (2024). International Tourism to Reach Pre-Pandemic Levels in 2024. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-reach-pre-pandemic-levels-in-2024>
4. UNESCO World Heritage Centre. (2023). Annual Report.
5. Japan National Tourism Organization. (2020). *Trends in inbound tourism to Japan*. <https://www.japan.travel/en/news/>
6. Bakhodirovna U. A. Impact Of Tourism On The National And World Economy //Professor, Weihenstephan-Triesdorf University of Applied Sciences, Germany. – 2023. – C. 67.

BRONZA VA ILK TEMIR DAVRIDA MARG'IYONA VOHA TUMANLARINING MODDIY MADANIYATI.

Hikmatova Salomat Hamza qizi

BuxDU Arxeologiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Marg'iyoning o'ziga xos yodgorligi Adjikuy yodgorligi shaharsozligi, bronza va ilk temir davridagi xususiyatlari va turlari tahlil qilingan. Bu yodgorliklarning o'zbek davlatchilik tarixida tutgan o'rni beqiyos hisoblanadi. Buni yodgorliklarni o'rganish vatanimiz tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Kalit so'zlar: Adjikuy 1, 8 madaniy qatlam, Gonur, Mouru, YuTAKE, Adjikuy 8, 1, 8 gektar qabriston, qal'a, qabrtosh, turar-joylar.

Abstract: This article analyzes the characteristics and types of the unique monument of Ancient Margiya, the Adzhikuy monument, the urban planning, the Bronze and Early Iron Ages. The role of these monuments in the history of Uzbek statehood is incomparable. The study of these monuments provides valuable information about the history of our homeland.

Keywords: Adzhikuy 1, 8 cultural layers, Gonur, Mouru, YuTAKE, Adzhikuy 8, 1.8 hectares of cemetery, fortress, tombstone, residential areas.

XIX asr oxirlariga kelib, Marg'iyona nomi Murgon (Murg/Mürg) daryosi bilan bog'langan edi. Masalan, F. G. Bergman amuriy saklarining ko'chish hududini muhokama qilib, skiflar tilida bu mamlakat *Margava* deb atalganini yozadi Shuningdek, V. V. Grigoryev ham mamlakat nomining Murg daryosi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu fikrni V. V. Struve davom ettirgan bo'lib, u bu toponimni Zardusht ta'limoti birinchi tan olingan hudud — *Mouru* bilan ham bog'lagan.

Janubiy Turkmaniston tarixiy yodgorliklarining umumiy tasnifi YuTAKE (Janubiy Turkmaniston Arxeologik Kompleks Ekspeditsiyasi) materiallarini Koptidag etaklaridagi qadimgi dehqonchilik yodgorliklari bilan taqqoslash asosida ishlab chiqilgan. Bu yondashuv tarixdan oldingi davrga oid manzillar uchun yangi xronologik sxemani tuzishga imkon berdi. Aynan shu yillarda B.A. Kuftin tomonidan Koptidag etaklaridagi Namozgoh-depe yodgorligida olib borilgan qazishmalar asosida ilk eneolit davridan kech bronza davrigacha bo'lgan (Namazga I–VI) yangi stratigrafik davrlashtirish taklif qilindi. Ushbu davrlar hali ham arxeologlar tomonidan umumiy qabul qilingan sxema hisoblanadi.

Adjikuy vohasi qadimgi Marg'iyona madaniyatiga oid muhim arxeologik manzillardan biri hisoblanadi. Ushbu voha Gonur-tepeden 14 km sharqda va Mari shahridan 66 km shimolda

<i>Qurbonova M.B Narzulloyev Farruxbek</i>	<i>O‘zbek elati ilk ajdodlarining shakllanish jarayonlari.....</i> 484
<i>Fattoyeva Mashhura Baxodir qizi</i>	<i>Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishida oilaviy muhitning ta'siri.....</i> 486
<i>Samadov G‘olibjon Zaynidinovich</i>	<i>XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ozodagarchilik ishlari489</i>
<i>Adizova Marjona Mirazizovna</i>	<i>Globalashuv jarayonida bola tarbiyasida oila va jamiyatning o‘rni492</i>
<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i>	<i>Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar: xalqaro tajriba asosida494.</i>
<i>Davlatov Abdulloh Alijon o‘g‘li</i>	<i>Hadislarning ilk yozuvga olinishi: sahobalar sahifalari va og‘zaki rivoyat an‘anasi499</i>
<i>Haitov J.Sh.</i>	<i>Mintaqamizda “amerika” paxta navining tarqalishi tarixi xususida.....501</i>
<i>Hasanova Nozikbonu Toymurot qizi</i>	<i>Opportunities to increase economic potential in the tourism sector.....503</i>
<i>Raxmonqulova Nafisa Olimjonovna, Muxammedov Tolibjon Tohir o‘g‘li</i>	<i>Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida raqamli transformatsiya qilinmasligining dolzarbligi505</i>
<i>Salimov Ilhom Ergash o‘g‘li</i>	<i>Zamonaviy notqlikning o‘ziga xos jihatlari509</i>
<i>Jamilova Ezoza Vaxobjonovna</i>	<i>Asosiy vositalarni hisobga olishdagi muammolar va ularning yechimlari511</i>
<i>Jamilova Ezoza Vaxobjonovna</i>	<i>O‘zbekistonda xalqaro standartlarga muvofiq asosiy vositalarni hisobga olish va ularning hisobini yuritish513</i>
<i>Jo‘raboyev Azizbek Axmadjon o‘g‘li</i>	<i>Navoiy ijodiga nazar515</i>
<i>Hamroyev Jasurbek Umedovich Ostanov Shuxrat Sharifovich</i>	<i>Zamonaviy yoshlarda kommunikativ ko‘nikmalarni takomillashtirishning psixologik-pedagogik jabhalari517</i>
<i>Bahronov Shaxriyor Shukrulloevich</i>	<i>Korporativ boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari.....519</i>
<i>Тоҳирова Мафтуна Толибовна, Эргашев Жаҳонгир Юнус ўғли</i>	<i>Бухоро қоракўлининг дунё бўйлаб тарқалиши, Ўзбекистонда қоракўлчиликнинг бугунги ҳолати.....522</i>
<i>Jonpo‘lotova Manzura Jahon qizi</i>	<i>Farzand shaxsining shakllanishida ota-onaning ahamiyati.....526</i>
<i>Muhabbat Husen qizi</i>	<i>Buxorodagi masjidi baland mehrobining o‘rganilishi.....528</i>
<i>Abdurahmonov Abdulhodiy</i>	<i>Masal janri - arab hamda o‘zbek adabiyotshunosligida532</i>
<i>Murodova Madinabonu Ilhom qizi</i>	<i>Xarajatlarni tahlil qilish va optimallashtirish usullari.....535</i>
<i>Qayimova Feruza Amon qizi G.B.To‘rayeva</i>	<i>Juvayniyning "tarixi jahongusho" asari turk-mo'g'ul tarixiga oid muhim manba (XII – XIII).....537</i>
<i>Rajabov Alisher Shavkatovich,</i>	<i>Pedagogika fanlarini tadqiq o‘qitishda yoshlar tarbiyasidagi o‘rni va roli540</i>
<i>Naimova Surayyo Yusupova Dilnoza</i>	<i>Agroturizmda ko‘ngilochar turizm elementlari: Zamonaviy tajribalar tahlili542</i>
<i>Niyazova Maxsuma Fattoyeva Nilufar Faxriddinovna.</i>	<i>IX-XII asr sirlangan sopol buyumlarining o‘rganilish tarixi...546</i>
<i>Ibodova Malika Gulmurodovna</i>	<i>O‘zbek tilida ma‘naviyat kategoriyasining simbolik ifodasi Symbolic expression of the category of spirituality in the uzbek language549</i>
<i>Fatilloeva Sabina Anvar qizi Usmonova.A.</i>	<i>Madaniy meros kontekstida barqaror turizmni qo'llash bo'yicha xalqaro tajriba.....553</i>